

**TIBBIY PROFILAKTIKA FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH. SUV HAYOT MANBAI MAVZUSI
MISOLIDA.**

Umarov Faxriddin Baxriddin o'g'li

Iskandarova Bahora Bektosh qizi

Adhamova Orzigul Botir qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Tuxtarov Baxrom Eshnazarovich

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Professori

Mavzuning dolzarbligi: Umumiy amaliyot shifokorlarini tayyorlash jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida ko'llash dolzarb ahamiyatga ega. Zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. “Suv hayot manbai” mavzusi suvning gigienik, endemik, epidemiologik ahamiyati, ichimlik suvi ta'minotini tashkillashtirish, infeksiyon va noinfeksiyon kasalliklar profilaktikasida suv sifatini yaxshilash usullari, ekologik muammolar to'g'risida bilimlarni, hamda to'liq tasavvurni shakllantirishda dolzarb hisoblanadi. Umumiy amaliyot vrachlari infeksiyon va noinfeksiyon kasalliklar profilaktikasida Davlat standarti O'z.GST 950 – 2011 ning ahamiyati haqida ma'lumot olishi, profilaktik chora –tadbirlarni o'tkazishni bilishlari shart. Shuning uchun zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'qitishda qo'llash dolzarbdir.

Tadqiqot maqsadi: Umumiy amaliyot shifokorlarni o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali tashqi muhit - ekologik sistemada suvning o'rni, yukumli, noinfeksiyon kasalliklar profilaktikasida ahamiyati, suv ob'ektlarini sanitar himoyalash va ekologik muammolar to'g'risida bilimlarni hamda to'liq tasavvurni shakllantirish bo'yicha bilim sifatini oshirish. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni rejalashtirish texnologiyalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish.

Materiallar va tadqiqot usullari: «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish Respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash, ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga bog'liqdir. Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va olgan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda

20-Yanvar, 2026-yil

qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borishlari lozim. Bugungi kunda ta'lim sohasida fan va texnikaning so'nggi yutuqlari asosida ishlab chiqilgan audiovideo, telekommunikatsiya va informatsion texnika va texnologiyalarning qo'llanilishi katta ahamiyat kasb etmoqda (Isrofilova O.I., 2014). Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning innovatsion texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning innovatsion texnologiyalarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Tadqiqot natijalar va mulohazalar: Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda “Ilg'or xorijiy tajribalar”dan foydalanish xam juda samarali bo'lib, bunda Yaponiya, Finlandiya, Janubiy Koreya mamlakatlaridagi o'qitish tizimlaridan xam ta'lim soxasidagi yangiliklardan fodalanish juda yaxshi samara beryapti. (Anvarov J. A. , 2019). YuNESKO, pedagogik texnologiyalarda yuqori natijalarga erishish uchun ta'limjaraenini rejalashtirish, qo'llash, bilimlarni o'zlashtirish va baholashda inson faktori va texnik resurslar o'zaro ta'siridan keng foydalanishni taklif qiladi. Biz ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillarni to'xtovsiz tahlil qilish, mutaxassislarning uzluksiz malakasini oshirish hamda qo'yiladigan uslublarning nechog'lik mosligiga to'g'ri baho berish tamoyillarni belgilashimiz va ta'limning olinishi zarur bo'lgan natijasini ifodalay olishimizga ko'rsatadigan yo'l hisoblanadi. Mana shu tamoyillarga tayanib ta'lim jarayoni samarali bo'lishini ta'minlaydigan texnologiya yangi innovatsion ta'lim texnologiyalari va noan'anaviy ta'lim hisoblanadi va ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etishdek muhim vazifani bajaradi. An'anaviy dars shaklni saqlab qolgan holda, unga turli – tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik – kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishdan “Blits so'rov”, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyihalash usuli, rolli o'yinlar, “SWOT tahlili” usuli, T-sxema, Keys texnologiyalari kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlay-di .

Xulosa: Samarqand Tibbiyot Universiteti umumiy gigiena va ekologiya kafedrasi xodimlari umumiy amaliyot vrachlarini tayyorlashda Gigiena va ekologiya fanini studentlarni o'qitish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalari keng qo'llab kelinmoqda. Uslubni tanlash mashg'ulot mavzusidan kelib chiqib, studentlarni yanada faollashtirishga yo'naltirilgan. Gigiena va ekologiya fanida samarali qo'llanilib kelinayotgan “Blits so'rov”, “T-sxema”, “Tushunchalar tahlili”, “Rolli o'yinlar”, “SWOT tahlili” usuli, “Klaster”, Keys texnologiyasi va boshqa usullar shular jumlasiga kiradi. Bu usullar

studentlar va pedagog uchun qiziqarli va o'zaro muloqotga tez kirishishni ta'minlaydi, barcha studentlar ham birday bu jarayonlarda faol ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Tuxtarov B. E., LEYSHMANIOZINING E. L. X. Q. O. Z. T., TARQALISHI V. A. U. O. O. C. TADBIRLARI//Scientific progress.–2023 //T. – T. 4. – №. 2. – C. 42-48.
2. Faxriddin U. et al. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALARNING OVQATLANISH TARTIBI. FARZANDLARIMIZNING KUNLIK RATSIONI //Global Interdisciplinary Science Review. – 2024. – T. 1. – №. 1.
3. Tuxtarov B. E. et al. Scientific progress. 2023.№ 2 //URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-terileyshmaniozining-tarqalishiva-uning-oldini-olish-chora-adbirlari> (дата обращения: 30.03. 2023).
4. Мусаева О. Т., Элмуродова Л. Х., Халилова Б. Р. Старение Как Область Научных Исследований И Организация Гериатрической Медицинской Помощи //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 317-322.
5. qizi Elmurodova L. X. et al. SUVNI KOAGULYATSIYA QILISHNING GIGIYENIK AHAMIYATI //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 30. – С. 67-71.
6. Musayeva O. T., qizi Elmurodova L. X., Khalilova B. R. HYGIENIC REQUIREMENTS FOR CHILDREN'S TOYS //World of Scientific news in Science. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 152-159.
7. Maxmatmurot o'g'li S. M. UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILAR OVQATLANISHINI GIGIYENIK TASHKILLASHTIRISH //PEDAGOGS. – 2024. – Т. 49. – №. 1. – С. 41-46.
8. Safar o'g'li F. F. et al. IN OUR COUNTRY PREVALENCE OF TUBERCULOSIS //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2024. – Т. 19. – №. 3. – С. 56-64.
9. Умаров Ф., Элмуродова Л., Холиков Д. К ВОПРОСУ О НЕОБХОДИМОСТИ СВОЕВРЕМЕННОГО ВЫЯВЛЕНИЯ